

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5 030,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022-yil yanvar-dekabrga nisbatan 747,8 mln. AQSH dollariga yoki 17,5 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **5 030,3** - 117,5 %

(2022- y.: 4 282,5)



Saldo

2023- y.: - **2 714,4** (2022 y.: - 1 789,5)



Eksport

2023- y.: **1 157,9** - 92,9 %

(2022- y.: 1 246,5)



Tovarlar: 1 144,4



Xizmatlar: 13,6



Import

2023- y.: **3 872,4** - 127,5 %

(2022- y.: 3 036,0)



Tovarlar: 3 791,0













Xizmatlar: 81,4

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori
ulushga ega bo'lgan davlatlar**
(2023-yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 1 157,9 mln. AQSH dollariga (7,1 % ga kamaydi) va import hajmi 3 872,4 mln. AQSH dollariga (27,5 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – 2 714,4 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 1 417,2</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 1 416,9</p> <p> 28,2 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 1 391,3</p> <p>Eksport: 65,8 Import: 1 325,5</p> <p> 27,7 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 544,2</p> <p>Eksport: 535,8 Import: 8,4</p> <p> 10,8 %</p>	<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 330,7</p> <p>Eksport: 224,3 Import: 106,4</p> <p> 6,6 %</p>	<p>Braziliya</p> <p>TSA – 222,3</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 222,0</p> <p> 4,4 %</p>
<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 216,8</p> <p>Eksport: 176,8 Import: 39,9</p> <p> 4,3 %</p>	<p>Meksika</p> <p>TSA – 214,7</p> <p>Eksport: - Import: 214,7</p> <p> 4,3 %</p>	<p>AQSH</p> <p>TSA – 165,6</p> <p>Eksport: 1,8 Import: 163,8</p> <p> 3,3 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 102,6</p> <p>Eksport: 24,5 Import: 78,1</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 56,4</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 56,1</p> <p> 1,1 %</p>

**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Andijon viloyati jahonning 84 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (28,2 %), XXR da (27,7 %), Qozog‘istonda (10,5 %), Rossiya Federatsiyasida (6,6 %), Braziliyada (4,4 %) va Qirg‘iz Respublikasida (4,3 %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Qozog‘iston va Tojikiston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qozog‘iston va Qirg‘iz Respublikasi bilan 1,5 martaga oshdi.







TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT
(2023-yil yanvar-dekabr mln. AQSH dollari)













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.


**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
	Koreya Respublikasi	1 258,1	1 552,2	1 417,2
	<i>Eksport</i>	0,9	0,9	0,3
	<i>Import</i>	1257,2	1551,3	1416,9
	XXR	525,0	639,4	1 391,3
	<i>Eksport</i>	156,8	58,7	65,8
	<i>Import</i>	368,2	580,7	1325,5
	Qozog‘iston	358,1	463,9	544,2
	<i>Eksport</i>	348,0	454,7	535,8
	<i>Import</i>	10,1	9,2	8,4
	Rossiya Federatsiyasi	280,3	459,5	330,7
	<i>Eksport</i>	89,6	181,3	224,3
	<i>Import</i>	190,6	278,1	106,4
	Braziliya	17,9	68,3	222,3
	<i>Eksport</i>	0,1	0,5	0,3
	<i>Import</i>	17,8	67,9	222,0
	Qirg‘iz Respublikasi	329,8	465,5	216,7
	<i>Eksport</i>	300,0	429,5	176,8
	<i>Import</i>	29,9	36,0	39,9
	Meksika	6,1	86,4	214,7
	<i>Eksport</i>	0,00005	0,0001	0,0
	<i>Import</i>	6,1	86,4	214,7
	AQSh	70,5	82,8	165,6
	<i>Eksport</i>	0,3	0,3	1,8
	<i>Import</i>	70,2	82,5	163,8
	Turkiya	94,9	110,2	102,6
	<i>Eksport</i>	32,3	40,5	24,5
	<i>Import</i>	62,6	69,7	78,1
	Hindiston	18,1	37,8	56,4
	<i>Eksport</i>	0,4	1,0	0,3
	<i>Import</i>	17,7	36,8	56,1

davomi


	Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
	Germaniya	22,8	37,9	42,6
	<i>Ekspport</i>	1,0	0,7	0,3
	<i>Import</i>	21,8	37,2	42,3
	Belarus	4,5	9,3	39,3
	<i>Ekspport</i>	1,7	3,4	33,3
	<i>Import</i>	2,8	5,9	6,0
	Slovakiya	6,0	12,6	30,6
	<i>Ekspport</i>	0,0	0,001	0,0
	<i>Import</i>	6,0	12,6	30,6
	Ozarbayjon	8,3	23,5	26,3
	<i>Ekspport</i>	7,2	23,0	26,2
	<i>Import</i>	1,1	0,5	0,1
	Afg'oniston	3,4	10,6	22,3
	<i>Ekspport</i>	3,2	10,6	22,3
	<i>Import</i>	0,2	0,01	0,003
	Tojikiston	4,7	15,8	20,8
	<i>Ekspport</i>	1,9	14,4	20,1
	<i>Import</i>	2,8	1,4	0,7
	Vetnam	3,6	1,0	17,3
	<i>Ekspport</i>	0,4	0,01	0,04
	<i>Import</i>	3,2	1,0	17,3
	Italiya	15,9	13,4	14,9
	<i>Ekspport</i>	2,3	4,7	2,0
	<i>Import</i>	13,6	8,7	13,9
	Polsha	11,6	11,7	16,0
	<i>Ekspport</i>	1,3	1,3	0,6
	<i>Import</i>	10,3	10,4	15,4
	Chexiya	17,8	24,4	15,8
	<i>Ekspport</i>	0,05	0,1	0,0
	<i>Import</i>	17,7	24,2	15,8

Andijon viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi
(2023-yil yanvar-dekabr)



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 65,5 % ulush bilan 3 299,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,5 % ulush bilan 24,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Andijon viloyatiining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari
va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



2023-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 23,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanma-sidagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 17,8 % ga kamayib, soʻngi uch yilda oʻrtacha koʻrsatkichni qayd etdi.

Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 2022-yilning mos davriga nisbatan 35,5 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 76,3 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga koʻra, 1 193,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1027,7 mln. AQSh dollariga yetgan boʻlsa, import 165,3 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.


ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2023-yil yanvar-dekabr)

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 439 tani tashkil etib, ular tomonidan 1 157,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST bo'yicha eksport tarkibi (2023-yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Andijon viloyati XSST bo'yicha eksport tarkibi
(yanvar-dekabr,)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	1 246,5	1 157,9	127,3	92,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	40,0	38,0	101,1	94,9	3,2	3,3
Ichimliklar va tamaki	2,1	5,7	15,9 m.	2,7	0,2	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,9	3,7	52,2	63,4	0,5	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,7	1,3	33,9 m.	12,5	0,8	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	26,3	21,0	11,6 m.	79,9	2,1	1,8
Sanoat tovarlari	285,1	239,7	91,1	84,1	22,9	20,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	473,6	535,0	129,9	113,0	38,0	46,2
Turli xil tayyor buyumlar	389,4	300,0	162,2	77,0	31,2	25,9
Xizmatlar	13,4	13,5	174,6	101,0	1,1	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,9 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (46,2 %), turli xil tayyor buyumlar (25,9 %), sanoat tovarlari (20,7), kimyoviy vositalar (1,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi
(2023-yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	35 658,9	93,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	957,5	10,7 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan, mahsulotlar	845,4	86,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	312,0	54,2
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	5 705,9	2,7 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 513,1	49,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	572,1	164,5
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	424,9	103,4
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	122,7	148,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 333,7	12,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	0,2	31,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	18 877,2	87,2
Noorganik kimyo moddalari	766,7	109,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	596,2	3,3 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	275,1	180,4

davomi

XSST bo‘limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	221 890,3	94,6
Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	5 348,3	19,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	5 002,7	46,5
Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 033,7	59,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (shu jumladan, havo transporti vositalari)	347 674,8	120,7
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	160 039,8	97,4
Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	13 980,9	165,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo‘lmagan qismlari ham)	11 032,3	91,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	278 435,2	78,9
Poyabzal	13 795,2	59,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel	2 950,2	58,8
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 864,9	74,6


MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi

(yanvar-dekabr mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 1 027,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportdagi ulushi 88,8 % ni tashkil etdi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmi, mln. AQSH dollari

(yanvar-dekabr oylari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2023-yil yanvar-dekabr, % da)



2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining 46,3 %) va Rossiya Federatsiyasi (19,4 %) davlatlari yetakchilik qildi. Mazkur ikki yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi 65,7 % ni tashkil etdi.









Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 37,6 mln. AQSH dollari qiymatidagi 138,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2022-yilning mos davriga nisbatan 23,3 ming tonnaga ko'paydi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida meva-sabzavot mahsulotlari jami eksportning 3,3 foizini tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2023-yil yanvar-dekabr, o'sish sur'atlari qiymat jihatidan)



<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>3,0 mln. AQSH dollari</p> <p>6,9 ming tonna</p>  <p>↑ 70,9 %</p>	<p>Karam</p> <p>1,7 mln. AQSH dollari</p> <p>8,7 ming tonna</p>  <p>↑ 87,5 %</p>	<p>Gilos</p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>1,0 ming tonna</p>  <p>↓ 36,6 %</p>	<p>Pomidor</p> <p>2,1 mln. AQSH dollari</p> <p>4,0 ming tonna</p>  <p>↓ 85,1 %</p>
<p>Shaftoli</p> <p>1,5 mln. AQSH dollari</p> <p>2,2 ming tonna</p>  <p>↑ 59,3</p>	<p>Bodring</p> <p>1,6 mln. AQSH dollari</p> <p>2,6 ming tonna</p>  <p>↑ 2,2 b.</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>6,4 mln. AQSH dollari</p> <p>41,8 ming tonna</p>  <p>↑ 1,2 b.</p>	<p>Piyoz</p> <p>2,2 mln. AQSH dollari</p> <p>13,0 ming tonna</p>  <p>↑ 111,8 %</p>

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (55,0 %), Rossiya Federatsiyasi (30,2 %), Qozog'iston (5,9 %), Pokiston (2,1 %) hamda Latviya (2,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Meva va sabzavot mahsulotlarinig eksport geografiyasi

(2023-yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	107 030,6	20 704,9	55,0
 Rossiya Federatsiyasi	13 224,2	11 356,5	30,2
 Qozog'iston	14 204,0	2 207,7	5,9
 Pokiston	240,8	963,3	2,6
 Latviya	2341,3	757,8	2,0
 Turkiya	320,0	657,9	1,7
 XXR	795,0	551,3	1,5
 Belarus	185,6	277,8	0,7
 Boshqalar	351,9	157,5	0,4

2023-yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 55,0 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,8 % ko'p.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti










To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha 498,2 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 46,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 15,6 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (55,7 %), paxtadan yigirilgan ip (25,3 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 268 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 23 ta davlatiga eksport qilindi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi










(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

	2022-yil	2023-yil
Jami:	590 459,4	498 210,9
 Tayyortrikotaj va tikuvchilik kiyimlari	352 361,8	277 829,7
 Paxtadan yigirilgan ip	135 332,0	126 348,7
 Naqshli mato	48 228,3	59 210,3
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	14 958,6	12 536,0
 Gilamlar	12 927,0	6 934,0
 Paxtadan gazlamalar	5 762,7	2 903,9
 Ipak mahsulotlari	14 033,4	8 853,1

Davlatlar kesimida to'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-dekabr, ming AQSh dollari)

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (35,7 % – 177,8 mln. AQSh dollari) va Qirg'iz Respublikasi (24,7 % – 123,3 mln. AQSh dollari) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati, % da
 Rossiya Federatsiyasi	124 510,2	177 770,7	142,8
 Qirg'iz Respublikasi	319 780,2	123 277,2	38,6
 XXR	58 238,3	65 232,7	112,0
 Belarus	2 579,1	32 763,9	12,7 m.
 Qozog'iston	10 561,9	24 916,3	2,4 m.
 Turkiya	38 343,0	23 452,7	61,2
 Afg'oniston	-	20 783,0	-
 Boshqalar	36 446,8	30 014,4	82,4


Andijon viloyatining importi

(2023-yil yanvar-dekabr)

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 3 872,4 mln. AQSH dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan 27,5 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (65,0 %), sanoat tovarlari (18,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (7,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST bo'yicha import tarkibi

(2023-yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 950,5 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 3 791,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 81,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Andijon viloyati XSST bo'yicha import tarkibi
(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	3 036,0	3 872,4	138,8	127,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,5	23,4	81,0	133,9	0,6	0,6
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,3	20,9 m.	2,5 m.	-	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22,3	24,1	111,9	107,8	0,7	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	16,9	46,5	165,3	2,7 m.	0,6	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,6	3,2	74,4	2,0 m.	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	219,9	300,7	172,3	136,8	7,2	7,8
Sanoat tovarlari	662,2	726,6	159,4	109,7	21,8	18,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	1 788,2	2 519,2	128,5	140,9	58,9	65,0
Turli xil tayyor buyumlar	111,7	147,0	125,8	131,6	3,7	3,8
Xizmatlar	195,6	81,4	179,9	41,6	6,4	2,1

XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi
(2023-yil yanvar-dekabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yil yanvar-dekabr nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	5 967,4	92,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 390,9	173,6
Sabzavotlar va mevalar	3 785,2	146,1
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	2 485,1	2,4 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	323,8	2,5 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	7 917,8	107,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7 863,8	102,1
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	5 186,8	129,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 823,0	104,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	25 099,1	3,8 m.
Ko'mir, koks va briketlar	19 203,7	186,7
Tabiiy yoki sun'iy gaz	2 199,9	152,5 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 962,2	2,0 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	221,2	2,4 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	96 444,5	140,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	63 737,2	124,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	52 885,0	123,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	32 521,1	143,5

davomi

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yil yanvar-dekabrga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	262 026,3	98,8
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	175 968,7	127,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	163 740,1	109,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	70 879,5	108,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	1 601 567,2	125,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	244 373,0	142,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	232 137,7	167,9
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	187 737,9	2,2 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	67 680,0	144,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	45 953,9	108,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	21 333,6	146,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	8 004,7	2,2 m.

2023-yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 4,0 % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 38,8 % ga ko'paydi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



2023-yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyati 75 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning 90,9 qismini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2023-yil yanvar-dekabr, % da)




Mashinalar va transport asbob-uskunolari importi

Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi 2 519,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022-yilning shu davriga nisbatan 40,9 % ga ko‘paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 65,1 % ga yetdi.

Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2023-yil yanvar-dekabr)




2023-yil yanvar-dekabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 731,0 mln. AQSH dollariga ko‘paydi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – 991,0 mln. AQSH dollari (39,3 %), XXR- 818,6 mln. AQSH dollari (32,5 %) va Braziliya – 153,6 mln. AQSH dollari (6,1 %) kabi davlatlarga to‘g‘ri keldi.

SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2023-yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 726,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 18,8 % ga yetdi.

Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2023-yil yanvar-dekabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (262,0 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari (176,0 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (163,7 mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (70,9 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.